

**ABDULLA AVLONIYNING TA’LIM VA TARBIYAGA OID QARASHLARI**

**Saparova Umida Baxromovna**

*Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti o‘qituvchisi*

*E-mail: [umidasaparova7@gmail.com](mailto:umidasaparova7@gmail.com)*

**Jurayeva Asalxon Farhod qizi**

*Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Avloniyning pedagogik qarashlari haqida umumiy ma’lumot beradi, shuni ta’kidlash joizki, o‘zbek ta’limi sohasidagi mutaxassislarning keyingi izlanishlari va ilmiy qarashlari uning o‘ziga xos ta’lim falsafasini yanada to‘liqroq tushunish imkonini beradi. Shunga qaramay, Avloniyning ta’lim-tarbiyaga bo‘lgan qat’iy intilishi va O‘zbekistonda ta’lim olish imkoniyatlari va madaniy taraqqiyotini targ‘ib qilishdagi rolini qadrlaymiz.

**Abstract.** This article provides general information about Avloni’s pedagogical views, it should be noted that the further research and scientific views of experts in the field of Uzbek education will allow a more complete understanding of his unique educational philosophy. Nevertheless, we appreciate Avloni’s commitment to education and his role in promoting educational opportunities and cultural development in Uzbekistan.

**Аннотация.** В данной статье даны общие сведения о педагогических взглядах Авлони, следует отметить, что дальнейшие исследования и научные взгляды специалистов в области узбекского образования позволят более полно понять его уникальную педагогическую философию. Тем не менее, мы ценим приверженность Авлони образованию и его роль в продвижении образовательных возможностей и культурного развития в Узбекистане.

**Kalit so‘zlar:** “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Guliston”, madaniy kontetstiya, madaniy tilni asrash, ta’limda ijtimoiy o‘zgarishlar yo‘li, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, axloqiy taraqqiyot, ijod va ijodni rivojlantirish yo‘li.

**Kirish.** Abdulla Avloniy – shoir, yozuvchi, dramaturg, ma’rifatparvar jamoat arbobi. Shu bilan birga, pedagogik faoliyat ham uning hayotida muhim sahifani tashkil etadi. U faoliyatining ilk bosqichidan to umrining so‘nggi damlarigacha o‘qituvchilik qildi, pedagogika fanining ham nazariy, ham amaliy masalalari bilan muttasil shug‘ullandi, darsliklar yaratdi. Aytish mumkinki, u musulmon sharqi mumtoz pedagogikasining katta bilimdoni, shu bilan birga, XX asr zamonaviy o‘zbek pedagogikasining asoschisi, o‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish metodikasi fanining tamal toshini qo‘yan mutafakkirdir. U faoliyati davomida ko‘plab zamonaviy pedagoglarni, metodist olimlarni tarbiyalab yetishtirdi.

**Asosiy qism.** O‘z zamonasining yirik ma’rifatparvar shoiri, pedagogi Abdulla Avloniy o‘qitishda birinchilardan bo‘lib texnika vositalardan foydalandi. U “Maktabga targ‘ib” she’rini bastakor sifatida alohida diqqat bilan kuya soladi va o‘quvchilarni xor bo‘lib o‘qishga o‘rgatadi. Bu o‘rinda u asarni timsollarga bo‘lib o‘qitishga ham alohida e’tibor berdi. So‘ngra 1911-yili bolalar xorini gramplastinkaga yozdirdi. Unda she’rning 4 misrasi ovozi baland ikki o‘quvchi tomonidan o‘qiladi. Uning bu faoliyati o‘z mакtabida xor, ifodali o‘qish, musiqa va ashula darslarini tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb etdi. Abdulla Avloniyning badiiy asarlarni ifodali o‘qish sohasidagi bunday faoliyati tezda Toshkentning usuli qadim va usuli jadid maktablariga ham kirib bordi. Mana shunday sharoitda yangi ochilayotgan maktablar uchun zamon talablariga javob bera oladigan o‘qituvchilarni tarbiyalab yetishtirish, maktablar uchun milliy ruh ufurib turgan darslik va majmualar yaratish uchun dasturulamal bo‘ladigan qo‘llanma kerak edi. Shuning uchun ham Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari Turkiston jadidlarining rahnamosi Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ilg‘or pedagoglarning taklifi bilan yaratilgan edi. To‘g‘ri, Abdulla Avloniy asarida axloqiy kategoriylar haqida fikr yuritar ekan, birinchi o‘rinda o‘quvchilarni ko‘zda tutadi, ammo ularni bolalar tarbiyasiga singdirish vazifasini muallimlar zimmasiga yuklaydi. Demak, asar o‘quvchilardan ko‘ra ko‘proq muallimlar uchun yaratilganligiga ishonch hosil qilish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, Abdulla Avloniyning muallimlarga qarata aytgan quyidagi so‘zлари “Turkiy guliston yoxud axloq” asarining maqsadini to‘la ifodalaydi: ‘Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko‘b zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatiga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g‘ayratlik bo‘lishiga sabab bo‘ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so‘ng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog‘lidur. Ta’lim ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo‘lsa ham, ikkisi biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur’. Bu so‘zлари o‘quvchilarga emas, kattalarga, ayniqsa, bo‘lg‘usi o‘qituvchilarga qaratilganligini anglash qiyin emas. Chunki ular kelgusida bularni bolalar — o‘quvchilar ongiga singdirishlari kerak. Shu tariqa, “Turkiy guliston...” asari buyuk mutafakkir Shayx Muslihiddin Sa’diyning “Guliston” asariga nazira sifatida yaratilgan. Abdulla Avloniy ta’lim-tarbiya sohasidagi faolligi bilan ham tanilgan ta’limning o‘zgartiruvchi kuchiga, uning jamiyatni shakllantirishdagi roliga bo‘lgan e’tiqodini aks ettiruvchi e’tiborga molik pedagogik qarashlarga ega edi. Uning pedagogik qarashlari haqida aniq ma’lumotlar keng tarqalgan bo‘lmasa-da, biz uning ta’lim-tarbiyaga sodiqligi va kengroq falsafiy dunyoqarashiga asoslanib, ma’lum tamoyil va g‘oyalarni xulosa qilishimiz mumkin. Abdulla Avloniyning o‘ziga xos pedagogik qarashlari haqida ma’lumotlar cheklangan bo‘lsa-da, uning ma’rifiy faoliyat bilan shug‘ullanishi va kengroq falsafasi u qabul qilgan ayrim tamoyillarni ko‘rsatadi.

Biz faqat o‘ziga xos jihatlar haqida taxmin qilishimiz mumkin bo‘lsa-da, Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlarining mumkin bo‘lgan jihatlarini keltiramiz:

**Madaniyat va tilni asrash:** Abdulla Avloniy o‘zbek madaniyati va tilini chuqr qadrlagan. U o‘zbek madaniy merosi, tillari, adabiyoti va an’analarini asrab-avaylash va ulug‘lash uchun o‘quv dasturiga madaniy ta’limni kiritish muhimligiga ishongan.

**Ta’lim – ijtimoiy o‘zgarishlarga yo‘li:** Avloniy ta’limga ijtimoiy o‘zgarishlar va o‘zgarishlarning katalizatori sifatida qaragan bo‘lishi mumkin. U ta’limning shaxs va jamoalarning imkoniyatlarini kengaytirish, ularni ijtimoiy tengsizliklardan ko‘tarish va butun jamiyat rivojiga hissa qo‘shishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlagan.

**Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish:** Avloniy shoир va ziyoli sifatida tanqidiy fikrlash qobiliyatining ta’limdagi ahamiyatini anglagan. U o‘quvchilarda axborotni tanqidiy tahlil qilish, so‘roq qilish va baholash qobiliyatlarini tarbiyalash, ularni mustaqil va o‘ylangan nuqtai nazarni rivojlantirishga undash muhimligini ta’kidlagan.

**Axloq va axloqiy taraqqiyot:** Avloniy o‘z adabiy asarlarida ijtimoiy va axloqiy ikkilanishlarni tadqiq etganini hisobga olsak, u ta’lim nafaqat akademik bilimlarni, balki axloqiy qadriyatlar va axloqiy tamoyillarni tarbiyalashni ham qamrab olishi kerak, deb hisoblagan. U empatiya,adolat va mas’uliyathi fuqarolikni tarbiyalaydigan ta’lim amaliyotlarini qo‘llab-quvvatlagan.

**Ta’lim olish imkoniyati:** Avloniy ijtimoiy kelib chiqishi, jinsi va ijtimoiy-iqtisodiy holatidan qat‘i nazar, barcha insonlar uchun ta’lim olishdan teng foydalanish imkoniyatini qadrlagan. U kamsitishni rad etadigan va hamma uchun ta’lim imkoniyatlarini ta’minlaydigan inkluziv ta’lim amaliyotini qo‘llab-quvvatlagan.

**Ijod va ifodani rivojlantirish:** Avloniy shoир va yozuvchi sifatida ijodkorlik, o‘zini namoyon qilish va individual iste’dodlarni rivojlantirishga undaydigan tarbiyaviy yondashuvlarni ilgari surgan. U fantaziya, hissiy aql va shaxsiy o‘sishni rivojlantirishda san’at va adabiyotning ahamiyatini tan olgan.

1910-yillarda Riga shahridagi “Grammofon” jamiyati vakillari O‘rtal Osiyo shaharlariga kelib, o‘zbek, qozoq, tojik, turkman xalqlari orasidagi mashhur hofizlarning kuy va qo‘shiqlarini, dostonlarini, xalq maqomlarini yozib oladilar. O‘z zamonasining yirik ma’rifatparvar shoiri, pedagogi Abdulla Avloniy o‘qitishda birinchilardan bo‘lib texnik vositalardan foydalandi. U “Maktabga targ‘ib” she’rini bastakor sifatida alohida diqqat bilan kuyga soladi va o‘quvchilarni xor bo‘lib o‘qishga o‘rgatadi. Bu o‘rinda u asarni timsollarga bo‘lib o‘qitishga ham alohida e’tibor berdi. So‘ngra 1911-yili bolalar xorini gramplastinkaga yozdirdi. Unda she’rning 4 misrasi ovozi baland ikki o‘quvchi tomonidan o‘qiladi:

Uning bu faoliyati o‘z maktabida xor, ifodali o‘qish, musiqa va ashula darslarini tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb etdi. Abdulla Avloniyning badiiy asarlarni ifodali o‘qish sohasidagi bunday faoliyati tezda Toshkentning usuli qadim va usuli jadid muktablariga ham kirib bordi. Mana shunday sharoitda yangi ochilayotgan

maktablar uchun zamon talablariga javob bera oladigan o‘qituvchilarni tarbiyalab yetishtirish, maktablar uchun milliy ruh ufurib turgan darslik va majmualar yaratish uchun dasturulamal bo‘ladigan qo‘llanma kerak edi. Shuning uchun ham Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari Turkiston jadidlarining rahnamosi Munavvarqori Abdurashidxonov hamda ilg‘or pedagoglarning taklifi bilan yaratilgan edi. To‘g‘ri, Abdulla Avloniy asarida axloqiy kategoriyalar haqida fikr yuritar ekan, birinchi o‘rinda o‘quvchilarni ko‘zda tutadi, ammo ularni bolalar tarbiyasiga singdirish vazifasini muallimlar zimmasiga yuklaydi. Demak, asar o‘quvchilardan ko‘ra ko‘proq muallimlar uchun yaratilganligiga ishonch hosil qilish mumkin. Abdulla Avloniy o‘z davrining har tomonlama yetuk shaxsi bo‘lhan uning ham tarbiyaga ham ta’lim oid qarashlarini biz hozirgacha foydalanib kelamiz. Sho‘rolar hukumati o‘sha vaqtarda o‘zbek farzandlari ongiga, shuuriga singdirmoqchi bo‘lgan Vatan, Millat, til haqidagi “soviet vatani”, “soviet xalqi”, “buyuk rus tili” kabi soxta tushunchalarni chilparchin qilib tashladi bu she’rlar. Sho‘rolar davrida oliy o‘quv yurtlari va o‘rta maktablar uchun tuzilgan bir qancha adabiyot darslik va majmualari muallifi, O‘zbekiston Xalq o‘qituvchisi, Respublikada xizmat ko‘rsatgan fan arbobi rahmatli otam Subutoy Dolimov bir kuni 25 yil davomida qayta-qayta ishlanib nashr etilgan o‘zi tuzgan 5-sinf “Vatan adabiyoti” darslik-majmuasini ko‘rsatib: “Shu ham “Vatan adabiyoti” majmuasi bo‘ldimi? 65–70 foizi rus adabiyotidan qilingan tarjimalar! Qani endi, o‘zbek yozuvchi va shoirlarining milliy ruh ufurib turgan eng go‘zal nazmiy va nasriy asarlaridan bolalarimiz uchun majmualar tuzsang!”, deb orzu qilgan edi. Abdulla Avloniy «Turkiy guliston...» asarining «Yomon xulqlar» qismi 18 bobdan iborat. Muallif insonning bunday xulqlarini «saodati adabiyadan mahrum, hayoti jovidonimiz uchun masnum bo`lgan axloqi zamimalar...» deb ataydi. A. Avloniy kishilarning ham ijobjiy xuldarini, ham salbiy xuldarini bayon qilib, kitobxonlar mulohazasiga havola qiladi. U «Bu sanalgan yomon xulqlarning fanoliqlarini, yuqorida sanagan yaxshi xulqlarning go`zalligini insof muvozanasi ila o`lchab, vijdon muhokamasi ila tahqiqlab, yaxshilarini tinglab amal qilmak yomonlarini onglab, hozir qilmak lozimdir», deydi. A. Avloniy g‘azabning ikki xil xususiyatini bayon qiladi. Biri dushmanidan o`zini, millatini mudofaa qilishda insonning qazabi muhim ahamiyatga ega bo`lsa, ikkinchisi birovni jabrzulm yo`li bilan ishlatish, odamlarga sovuq muomilasi bilan dahshat solishdan iborat bo`lgan salbiy xususiyatdir. hilm - yumshoq tabiatlilik bilangina g`azabning oldini olish mumkin. A. Avloniy bu haqda Imom Shofe’i havzratlarining so`zlarini keltiradi: «Qilich va nayza ila hosil bo`lmagan ko‘p ishlar yumshoqlik va muloyimlik ila hosil bo`lur, azabning zarari egasiga qaytur», - demishlar. A. Avloniy asarning «Yomon xulqlar» qismida yana bir nihoyatda muhim masalaga e’tiborni qaratadi. Bu «Jaholat» va «Aqsomi jaholat» boblaridir. Asar muallifi jaholatni ikki qismga ajratadi: biri «jahli bosit» («oddiy jaholat»), ikkinchisi «jahli murakkab». «Jahli bosit» kasaliga mubtalo bo`lganlari biror narsani bilmaydilar

va bilmaslikdilarini e`tirof etadilar. Bularning avomi nisbatan oson, ularni o‘qitish, o‘rgatish bilan bu maarazdan foruh qilish mumkin kabi bir qancha odob-axloq masalalariga o‘z asarlarida jiddiy e’tibor qaratgan.

**Xulosa.** Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki Abdulla Avloniy me’rosini o‘rganish har bir ta’lim jarayonida faoliyat olib boruvchilar va o‘quvchilar o‘rganishi zarur bo‘lgan ma’naviy me’rosdir.

### **Foydalaniłgan adabiyotlar:**

1. Zunnuov, Apedagogika Tarixi. Toshkent – 2004.
2. Dolimov, U. Abdulla Avloniyning milliy uyg’onish davri pedagogikasining asoschisi
3. Tolipov, Q, Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - Toshkent: “Fan”, 2006. -B.262.
4. To‘xliyev B, Shamsiyeva M, Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. - Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti,